



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



6/2024

6/2024  
Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University



E-ISSN 2181-1466  
9 772181 146004



ISSN 2181-6875  
9 772181 687004

@buxdu\_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**  
**2024, № 6, iyun**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy fanlar** bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

**Elektron manzil:** nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich,** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.,** filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.,** kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.,** texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.,** fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich,** filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich,** pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich,** texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich,** psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich,** biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich,** siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich,** fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich,** fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich,** pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich,** pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich,** kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich,** filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich,** tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich,** tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich,** tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoiri Nematovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich,** tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich,** siyosiy fanlar doktori, professor

**Kolliyev Askar Ergashovich,** biologiya fanlari doktori, professor

**Artikova Hafiza To'ymurodovna,** biologiya fanlari doktori, professor

**Hayitov Shavkat Ahmadovich,** filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbonova Gulnoz Negmatovna,** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna,** kimyo fanlari doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich,** texnika fanlari doktori, professor

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich,** texnika fanlari doktori, dotsent

**Esanov Husniddin Qurbonovich,** biologiya fanlari doktori, dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich,** texnika fanlari nomzodi, professor

**Jumayev Jura,** fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Klicher Oybek Abdurasulovich,** tarix fanlari doktori, dotsent

**G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

<b>MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS</b>		
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Муродов Ғ.Н.</b>	Гуманизм ва бадий тафаккур уйғунлиги	3
<b>Ҳамдамов У.А.</b>	Фитрат шеъритада жадидчилик ғояларининг акс этиши	9
<b>Babayev M.T.</b>	Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" manzumasidagi masallarda hayvonlarning antropomorfizmi	13
<b>Bozorova R.Sh.</b>	O'zbek va nemis folklorida suv talqini	18
<b>Chorieva M.J.</b>	The rational perception of the "Pride" in Jane Austen's "Sense and sensibility"	24
<b>Дармонов И.К.</b>	Шомон мўъжизалари ҳақидаги афсоналар	30
<b>G'aniyeva N.G'.</b>	Amerikada "rezistans" adabiyoti: Maya Anjelou she'rlari misolida	34
<b>Qurbonova N.R., Ikromova N.I.</b>	Ted Hyuz ijodi adabiy tanqidchilar nigohida	41
<b>Iskandarova Sh.U.</b>	Badiiy adabiyotning epistemologik qiymati	45
<b>Khudoyorova N.B.</b>	The main characteristics of the english enlightenment literature	50
<b>Mizrabova J.I.</b>	Uilyam Shekspir ijodi va uyg'onish davrining xalq madaniyati	58
<b>Narziyeva S.D.</b>	Samandar Vohidov uhroviy mazmundagi she'rlarining meditatif va elegiyaviy xususiyatlari	63
<b>Qosimova N.F.</b>	Tarjimaga kognitiv yondashishda ongli va avtomatik jarayonlar hamda intuitsiyaning mohiyati	68
<b>Salixova N.N., Luqmonova N.B.</b>	Tarjima tarixi va tarjimonlik faoliyati	73
<b>Temirova F.O.</b>	Bolalar latifalarining o'ziga xos jihatlari va mezonlari	77
<b>Tursunova S.U.</b>	Psychologism of a female character in Zulfiya Kurolbay's story "Woman"	82
<b>Ахматов А.А.</b>	Положение эпического искусства и искусства наказаний в Кашкадарьинском оазисе	86
<b>Каримова Д.Х.</b>	Немис ва ўзбек адабиётида адабий эртақ такомилнинг асосий омиллари ва манбалари (Ака-ука Гримм эртақларининг ўзбекча таржималари мисолида)	90
<b>Farmanova D.A.</b>	Ethnopoetics in english and uzbek novels	94

**O'ZBEK VA NEMIS FOLKLORIDA SUV TALQINI****Bozorova Rufina Sharopovna,***Buxoro davlat universiteti**Nemis filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi**r.sh.bozorova@buxdu.uz*

**Annatsariya.** *Ma'zur maqola o'zbek va nemis folkloridagi suv talqiniga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu tabiat ne'matining har ikkala millat madaniyatida tutgan o'rni ertak, maqol, qo'shiqlar orqali bayon qilinadi. Etnografik adabiyotlarda yozilishicha, qadimgi odamlar o'lgan xudolar tasvirlangan qo'g'irchoqlarni suvga tashlab, marhumlar mulkiga yuborganlar va ularning tirilib qaytib kelishini kutganlar. Demak, suvni ikki olam o'rtasidagi chegara, o'ziga xos bir sarhad sifatida tushunish nihoyatda keng tarqalgan eng qadimiy mifologik e'tiqodlardan biri hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *mifologiya, mifologik anglash, suv kulti, poetonim, folklor, arxaik tasavvur, ruhiy poklanish, lirik personaj, introspektsiya, ekologik madaniyat, ramz, hissiy rezonans.*

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВОДЫ В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ФОЛЬКЛЕРЕ**

**Аннотация.** *Данная статья посвящена интерпретации воды в узбекском и немецком фольклоре, в котором роль этого природного дара в культуре обоих народов описывается через сказки, пословицы и песни. Согласно данным этнографической литературы, куклы, изображавшие умерших богов, древние люди бросали в воду, отправляли в собственность умершего и ждали, пока они воскреснут из мертвых. Поэтому понимание воды как границы между двумя мирами является одним из самых распространенных древних мифологических представлений.*

**Ключевые слова:** *мифология, мифологическое осмысление, водный культ, поетоним, фольклор, архаическое воображение, духовное очищение, лирический персонаж, самоанализ, экологическая культура, символ, эмоциональный резонанс.*

**THE INTERPRETATION OF WATER IN UZBEK AND GERMAN FOLKLORE**

**Annotation.** *This article is devoted to the interpretation of water in Uzbek and German folklore, in which the role of this natural gift in the culture of both nations is described through fairy tales, proverbs, and songs. According to ethnographic literature, ancient people threw dolls depicting dead gods into the water, sent them to the property of the deceased, and waited for them to come back from the dead. Therefore, the understanding of water as a boundary between two worlds is one of the most widespread ancient mythological beliefs.*

**Keywords:** *mythology, mythological understanding, water cult, poetonym, folklore, archaic imagination, spiritual purification, lyrical character, introspection, ecological culture, symbol, emotional resonance.*

**Kirish.** Xalq og'zaki ijodi – folklor har bir millatning qog'ozga yozilmagan, ammo bir-birovga aytish, kuylab berish orqali ajdoddan avlodlarga o'tib kelgan ajdodlar tarixi hisoblanadi. Millat xotirasidagi epik bilimlarda turli ruhiy holat, voqeliklar bilan birga tabiatni e'zozlash bilan bog'liq ekologik madaniyat o'z badiiy ifodasini topgan hamda inson va tabiat o'rtasida munosabat tasvirlangan.

**Asosiy qism.** Tarixdan ma'lumki, olamni mifologik anglash asosida yuzaga kelgan dastlabki tasavvurlar keyinchalik xalq og'zaki ijodining asotir, doston, ertak, maqol, topishmoq, qo'shiq va boshqa janrlarida o'ziga xos tarzda talqin etila boshlangan. Shak-shubhasiz, bu borada Markaziy Osiyo xalqlari xalq og'zaki ijodi ham rang-barangligi hamda janrlarga boyligi bilan alohida ajralib turishini dunyoning yetuk folklorshunoslari ham yaxshi biladilar.

Adabiyotshunos olim U. Jo'raqulovning yozishicha, xalq ijodiyotida suv bilan bog'liq o'ta qiziq axborot kodlari yashiringan bo'ladi. O'zbek xalqida "Yaxshilik qil, daryoga tashla, bilsa baliq bilar, baliq bilmasa, Xoliq bilar", "Tushingni suvga ayt" singari maqollar, o'gitlar ko'plab uchraydi. Shuningdek, "Alpomish" dostonining bir variantida ezgu maqsad bilan safarga chiqqan Alpomishning yo'lida daryo ko'ndalang bo'lib qoladi. Daryodan o'tishga imkon topa olmagan qahramon o'z orzu-armonlari, ezgu

## LITERARY CRITICISM

niyatlaridan suvga arz qiladi. Natijada shu daryo pishqirishdan to'xtab, ikki tomonga chekinadi. Qahramon bu "yo'l"dan eson-omon o'tib oladi, maqsadiga yetadi. Ushbu motivga Qur'oni Karim va boshqa diniy kitoblarda keladigan Muso alayhissalom hayoti bilan bog'liq qissa asos bo'lgani ma'lum. Bunga o'xshash misollarni yozib olingan xalq eposlari matnidan istagancha topish mumkin.

Turkiy xalqlarning mifologiyasi va xalq og'zaki ijodida suv mavzusi o'ziga xos o'rinni tutadi. Xususan, ko'plab xalq qo'shiqlari, maqol-matallari va ertaklarida suv bilan bog'liq syujet hamda voqealarni kuzatish mumkin. Agarda o'zbek xalqi ertaklarining mazmun-mohiyatiga nazar solinsa, ayrimlarida qahramon tashlagan oynadan daryolar hosil bo'lishi *suv kulti* va *partial* (lotin tilidagi "pars", ya'ni "qism, bo'lak" so'zidan olingan bo'lib, "xususiy, alohida" ma'nosini bildiradi) magiyaga inonchning badiiy ko'rinishi bo'lgan. Chunki an'analarda oyna suv parchasi hisoblangan. Shuningdek, o'zbek xalq ertaklarida suv u dunyo va bu dunyo o'rtasidagi chegara vazifasini bajargan hamda ertak qahramonining o'liklar mulkiga ramziy safari haqidagi hikoya sifatida qayd qilingan. Qolaversa, ularning ayrimlarida yaramas kishilar, zolimlar malika yoki qahramonni sandiqqa solib, daryoga tashlab yuboradilar va narigi olamga yo'llaydilar. Folklorshunos olimlarning qayd qilishicha, Yevropa xalqlari ertaklarida nihoyat darajada kam uchraydigan ushbu motiv ko'proq turkey (o'zbek va ozarbayjon) ertaklariga xos alohida xususiyat hisoblanadi.

Xalq ertaklaridagi suv motivini o'rgangan F.Go'zalovning yozishiga ko'ra, ertaklarda tasvirlangan qandaydir darvesh yoki shohning istagi bilan qahramonni sandiqqa solib, daryo yoki dengizga tashlab yuborilish suv chegara magik tasavvuri nuqtai nazaridan ma'lum darajada tushunarli, lekin ushbu qarash bo'yicha qahramonning suvda lopillab oqib kelayotgan sandiqni ko'rib qolib, suvdan olib chiqishi va uning ichidagi qizni qutqarishi esa izohsiz. Har ikkala holatda ham odamning daryoda oqizib yuborilishi (sandiqda), uni o'limga mahkum etish yoki o'liklarning dunyosiga jo'natib yuborishdir.

Etnografik adabiyotlarda yozilishicha, qadimgi odamlar o'lgan xudolar tasvirlangan qo'g'irchoqlarni suvga tashlab, marhumlar mulkiga yuborganlar va ularning tirilib qaytib kelishini kutganlar. Demak, suvni ikki olam o'rtasidagi chegara, o'ziga xos bir sarhad sifatida tushunish nihoyatda keng tarqalgan eng qadimiy mifologik e'tiqodlardan biri hisoblanadi. Xalq ertaklaridagi ilonlar osmon, olov, suv va totem bilan bog'liq bo'lgan. Shuningdek, ilon suv va yomg'irning mifologik timsoli sifatida talqin qilinadi. Jumladan, o'zbek xalqi ertaklarida ilon obrazi buloq, quduq, daryo, hovuz obihayot suri bilan bog'liq holda ifodalanadi.

"*Suv bola*" nomli o'zbek xalq ertagining qahramoni buloqdagi baliq bilan gaplashib turgan chog'ida kutilmaganda "yeru ko'kni qorong'ulik bosibdi. Birdan shamol to's-to'polon ko'tarib, chelaklab yomg'ir yog'a boshlabdi. Bola bu o'zi nima ekan deb hayron bo'lib turgan ekan, osmonu falakdan bir ajdaho quyulib kelib, buloq boshiga qo'nibdi".

O'zbek xalq og'zaki ijodida ham suv va ko'zgu o'zaro o'xshash bo'lganligi bois doim birga tavsif qilingan. Ko'pgina xalqlarning ertaklarida ham ko'zgu o'z aksini topgan bo'lib, ularda bosh qahramon o'zining yo'qotib qo'ygan sevgilisini yoki u dunyodagi ota-onasini ko'zgu orqali ko'radi. Kosadagi suv ham ana shu vazifani bajargan, suvga boqib fol ko'rish odati o'shandan qolgan. Shuningdek, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning o'lmas asarlarida ham suv Allohning, ya'ni quyoshning ko'zgu sifatida talqin qilingan.

Xullas, suv o'z tabiiy xususiyatidan kelib chiqib ko'zgu-oynaga ham tenglashtirilgan. Shuningdek, kosadagi suvdan ko'zgu sifatida ham foydalanilgan. Mashhur ingliz antropolog olimi J.Frezer ham jon soya, suv va ko'zgdagi aks tasvirda ham bo'lishi mumkinligi haqida tassavurlar bo'lganligi xususida yozgan. Katta suvlarga yolg'iz borish, kechasi oynaga qarash, soch tarash mumkin emasligi haqidagi qarashlar jahon xalqlari, jumladan, o'zbek xalqida ham mavjuddir.

Xalq orasida keng tarqalgan ilon va ajdarlar haqidagi tasavvurlar ko'p jihatdan suv va hosildorlik kultlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Folklorshunos olim M.Jo'raevning yozishicha, o'zbek mifologiyasida ajdar quyi olam, hayot daraxtining tubi, suv, aniqrog'i, obihayot bulog'i bilan bog'liq holda talqin qilinadi. "*Suv bola*"ertagida ajdarning yomg'ir va jala bilan birga kelishi tasviri ham xuddi ana shu qadimiy e'tiqodiy qarashlarning in'ikosidir. Shu tarzda asta-sekin sudralib yuruvchi jonzot – ilonning suv bilan bevosita bog'liqligi haqidagi mifologik e'tiqodlar kelib chiqqan.

Qisqasi, o'zbeklar tasavvurida ilon suvga tegmaydi. Bunga sabab, birinchidan, uning bezarar bo'lganligi, ikkinchidan, aynan suv bilan bog'liq ekanligidir. Shu bois xalq orasida "*Suv ichganga ilon ham tegmas*" degan maqol keng tarqalganligi bejiz emas. Xalq maqollari xalq og'zaki ijodi (folklor) ning ixcham shakldagi, ammo o'ta teran mazmunga ega janri bo'lib, u til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi va maishiy turmush tarzining bamisoli bir tiniq oynasidir. Ushbu badiiy oynada uning hayot, tabiat, inson, oila hamda jamiyatga bo'lgan munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik, falsafiy-diniy, tarbiyaviy qarashi, qisqasi,

## LITERARY CRITICISM

o'zi hamda o'zligi to'la namoyon bo'lgan. Odamlar g'oyatda murakkab hayotda ko'rgan-kechirganlari va olgan ibratli saboqlari, kuzatishlari haqida bir-birlariga mayda-chuydalariga qadar so'zlab berganlar. Keyinchalik o'sha hikoyaning saboq va xulosa qismi xalq maqoliga aylanib ketgan.

Olim Adhamjon Ashirov "O'zbek madaniyatida suv" nomli monografiyasida keltirilishicha Farg'ona vodiysida istiqomat qiluvchi o'zbek, tojik va qirg'iz xalqlarida suvning xususiyati, uning vazifalari va xalq turmush tarzi, xo'jalik mashg'ulotida tutgan o'rni hamda bu borada insonlar o'rtasidagi munosabatlarning ahamiyatiga bag'ishlangan qator maqollar bor. Bu o'rinda suv va uni bulg'atmaslik haqidagi o'zbek xalq maqollari 400 dan ziyodligi ham xalqimiz azal-azaldan ushbu masalaga g'oyatda e'tiborli bo'lganligini tasdiqlaydi.

Jumladan, o'zbeklarda "Chilla – har dami tilla", "Chilla suvi – tilla suvi" singari maqollar keng tarqalgan. Ushbu maqollar dehqonchilik bilan bog'liq bo'lib, ularda, ayniqsa, mazkur kasb-hunar egalari uchun saratondagi "yoz chillasi" eng mas'uliyatli palla ekanligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, suv kamchil bo'lgan yillari ishning o'zidan ko'ra ko'zini yaxshi biladigan tajribali miroblar obihayotning har tomchisidan tejab-tergab foydalanishga harakat qilganlar. Qadimda suv tanqisligidan yoki saratonning jazirama issiq va garmselidan yuragini oldirib qo'ygan zahmatkash dehqonlar tabiatning harna "insof qilishi"ga umid bog'lab, "Chilladan qolgani bizniki" deb niyat qilib, umidvor bo'lishgan. "Sumbulada suv soviydi" deytilar. Sumbula (yoki: sunbula) o'zbeklarda bir o'ning an'anaviy, sof turkiycha nomi bo'lib, taxminan 24-avgustdan 23-sentyabrgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Bu ayni pishiqchilik davri, suv ancha tingan, yana bir maqolda aytilganidek, "Sumbulaning suvi – sharob" payti bo'ladi. Shuningdek, sunbula bilan bog'liq sumbulada suv tinar", "sumbulaning suvi sovur", "yaxshi kelsa hut, yomon kelsa jut" kabi xalq naqllari ham bo'lgan. Ayrim joylarda "Sumbula tushganini suv bilar" deytilar. Buning boisi shuki, yoz to'qsoni oxirida, chilla tugashi bilan o'lkamizda fasllar almashadi, ariq va daryolardagi suvning harorati biroz pasayadi. Yoz kechasi asta-sekin uzayadi, tunlari esa salqin tushadi.

O'zbek xalqida elga suv olib kelish yoki birovga suv berish eng savobli amallardan biri, albatta. Shu bois "suv keltirgan elda aziz" deb naql qiladilar. Bevosita suv bilan bog'liq ayrim maqollar dastlab o'z ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik ko'chma ma'noda ham ishlatilgan. Masalan, o'zbek xalqining "Koriz suvi– jon suvi" maqoli mavjud. Tarixdan ma'lumki, dehqonchilik qilish uchun yer ilmini bilish va sug'orish tizimlarini yaratish zarur bo'lgan. Shu bois maqollarda ham suv va sug'orish ishlari bilan bog'liq masalalar keng ko'lamda ifoda etilgan. Irrigatsiya sohasida O'zbekistonda qadimdan katta mehnat va yer sharoitini chuqur bilishni talab qiladigan koriz ziroatchiligi saqlanib kelgan.

Suv dehqonchilik uchun asosiy zaruriy ehtiyoj bo'lganligi tufayli xalqimiz koriz xususida o'ziga xos tashbeh bilan "Koriz suvi – jon suvi" maqolini yaratgan. Mazkur maqolning yaratilishida geografik sharoit muhim o'rin egallagan. Ma'lumki, Markaziy Osiyo hududlarida tekislik, pasttekislik, yer sathlaridan tashqari tepalik va adirlar singari relyefi unchalik baland bo'lmagan joylarga ham ekin ekib kelingan. Bunday yerlarga yuqori sathdan suv keltirish yoxud yog'ingarchilik asosida sug'orish ishlari avvaldan puxta rejalashtirib olingan. Boshqa vaqtlarda esa yuqoriga pastdan suv chiqarish ham kerak bo'lgan. Koriz suvni yuqoriga chiqarish usuli bo'lib, xalqimiz uni xastalikka yo'liqqan tanaga hayot bag'ishlovchi jonga qiyoslagan.

Suv haqidagi maqollar

Avval kelgan ho'kiz suvning tozasini ichadi.

Avvalgi baxtim – gul baxtim, keyingi baxtim – suvga oqdim.

Aqli o'ylanguncha tentak suvdan o'tar.

Ariq qazimasang, otizga suv chiqmas.

Ariqni kimlar qazir, suvini kimlar ichar.

Ariqni suv bezar, odamni – so'z.

Xalq qo'shiqlarida suv talqini. O'zbek xalq qo'shiqlarida suv mavzusi alohida o'rin tutgan va magik-ritual ahamiyat kasb etgan. Suvning poetik obrazi xalqona qo'shiqlardagi eng faol tabiat hodisasi hisoblanadi. Ushbu bebaho unsur – suvning tabiatda aylanib yurishi arxaiik dunyoqarashdagi jonning ko'chib yurishi g'oyasiga ham nihoyatda mos keladi. Jahondagi turli din, kult, marosim va miflarda suvning ahamiyati shu darajada ulkan ham benihoyati, ularning barchasini bir joyga to'plashga urinish avvaldan muvaffaqiyatsizlikka mahkumdur.

Xalq qo'shiqlarida suv ko'p bora qayd qilingan bo'lib, u turli ko'rinishlarda talqin qilingan. Xususan, qo'shiqlardan birida:

Suvni suluv ko'rsatgan,

Toshi bo'lar, yor-yor.

Qizni suluv ko'rsatgan,

## LITERARY CRITICISM

Qoshi bo'lar, yor-yor, –

deyladi.

Qo'shiqda butun hayotning asosi bo'lgan suv tufayli tosh, tosh sababli suv suluv ko'ringani singari, qiz bola ham aynan qoshi tufayli chiroyli deb talqin qilingan. O'z o'rnida shuni ta'kidlash muhimki, "qiz" so'zi qadimda hozirgidek jinsni emas, balki muqaddaslik va bebaholikni anglatgan. Xalq qo'shiqlarida ilon obrazi ham ko'p tilga olinadi va bu poetik obrazning suv, bog', mevali daraxtlar bilan birga talqin qilinishi uni sevgi, oila, farzand va to'kin turmush g'oyalari bilan bog'lab turadi.

Seni unda, meni bunda yaratdi,  
O'rtamizda oqar daryo yaratdi.  
Oqar daryo ekan, oqdidada, ketdi,  
Bevafo yor ekan, tashladi-ketdi.

Arxaik tasavvurlarga binoan, suv doimo dunyolar o'rtasida o'ziga xos bir sarhad, chegara bo'lib kelgan. Xususan, yuqoridagi qo'shiqda ham oqar daryo o'tgan umri, lirik personajlarning daryoning ikki tomonida yaratilishi va ayriliq peshonaga bitilgan taqdiridan ekan degan ma'nolarni anglashiladi.

Namangan viloyati Kosonsoy tumanida bolalarning ham o'ziga xos qo'shiqlari bo'lib, ular tabiat va suv bi-lan bog'liq holda o'zbek va tojik tillarida kuylangan. Masalan, bahor faslida daryo va ariqlarga tog'lardagi qorlar erib, suvga to'lib-toshib, ayqirib oqqan paytlarda

Suv keldi-yu, suv keldi,  
Suv ustida gul keldi,  
Gulni tutib hidlasam,  
Onajonimning hidi keldi<sup>1</sup>, –

deb qo'shiqlar kuylangan.

Hayot beruvchi kuch bo'lgan suv tarix davomida insoniyat jamiyatlarida muhim rol o'ynagan. Uning ramziy ahamiyati turli madaniyatlarga singib ketgan va nemis folklori ham bundan mustasno emas. Sokin ko'llardan tortib to shiddatli daryolargacha suv turli ma'nolarni o'zida mujassam etgan bo'lib, inson tajribasi va tabiat olamining murakkabligini aks ettiradi. Suv ko'pincha hayot va yangilanish manbai hisoblanadi. Nemis xalq ertaklarida buloqlar va quduqlar shifo va yoshartiruvchi joylar sifatida tasvirlangan. Aka-uka Grimmlarning "Das Wasser des Lebens" ertagida sehrli buloqqa salomatlik va yoshlikni tiklaydigan ramz sifatida qaralsa, daryo va soylar hayot oqimi va vaqt o'tishini ko'rsatuvchi poetonim sifatida voqelanadi.

Suvning oldindan aytib bo'lmaydigan tabiati ham xavf va noma'lum narsalarni o'zida mujassam etgan. Chuqur ko'llar va xiyonatkor daryolar ko'pincha Nixen (suv ruhleri) va Vassermänner (suv odamlari) kabi afsonaviy mavjudotlar bilan bog'liq bo'lib, ular shubhasiz qurbonlarni suvli qabrlariga jalb qiladilar. Bu hikoyalar ogohlantirish ertaklari bo'lib xizmat qiladi, sirt ostida yashiringan xavf-xatarlar haqida ogohlantiradi.

Suv ob'ektlari ko'pincha turli sohalar o'rtasidagi ramziy chegara vazifasini bajaradi. Daryo yoki oqimdan o'tish hayotning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tishni yoki noma'lum tomonga sayohatni anglatishi mumkin. "Bruder und Schwester" ertagida aka-uka yovuz o'gay onasidan qochish uchun daryoni kesib o'tishlari kerak, bu ularning yangi hayotga o'tishini anglatadi.

Suv, shuningdek, poklanish va qutqarishni anglatadi. Suvga cho'mish marosimi, suvga cho'mish marosimlarida ko'rinib turganidek, ruhiy poklanish va qayta tug'ilishni anglatadi. Xalq ertaklarida qahramonlar o'zlarining qadr-qimmatini isbotlash yoki o'tmishdagi qonunbuzarliklardan tozalash uchun suv bilan bog'liq sinovlardan o'tishlari talab qilinishi mumkin.

\* Die Lorelei: Dieser bezaubernde Wassergeist lockt Seeleute mit seinem fesselnden Gesang in den Tod und stellt die verführerische und doch gefährliche Natur des Wassers dar.

\* Die Nixie vom Mühlenteich: Ein Wassergeist verliebt sich in einen Menschen und versucht, ihn in ihr Wasserreich zu locken, wodurch die Grenze zwischen der menschlichen und der übernatürlichen Welt hervorgehoben wird.

\* Der Froschkönig: Die Verwandlung eines Frosches in einen Prinzen, nachdem er gegen eine Wand geworfen wurde, symbolisiert die transformierende Kraft des Wassers und das Potenzial zur Erneuerung.

Nemis folkloridagi suv ramziyligi ko'p qirrali bo'lib, ushbu muhim elementning hayot beruvchi va halokatli tomonlarini aks ettiradi. Suv hayot oqimi va poklanishni ifodalashdan tortib, xavf va g'ayritabiiylikni o'zida mujassam etganga, nemis xalq ertaklaridagi hikoyalar va mavzularni boyitgan kuchli ramz bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ramziy ma'nolarni tushunish suvning madaniy ahamiyatini va uning inson tasavvuridagi doimiy rolini tushunishga imkon beradi.

## LITERARY CRITICISM

Madaniyatning mohiyati ko'pincha uning musiqasi orqali o'tadi va nemis xalq qo'shiqlari bundan mustasno emas. Ushbu ohangdor rivoyatlar ichida suv inson tajribasi va tabiiy dunyoni aks ettiruvchi turli xil ma'nolarni o'z ichiga olgan kuchli ramz sifatida namoyon bo'ladi.

Hayot manbai bo'lgan suv ko'pincha nemis xalq qo'shiqlarida unumdorlik, o'sish va yangilanish ramzi sifatida nishonlanadi. "Es führt über den Main" va "Die Lorelei" kabi qo'shiqlarda daryolar va soylar jamiyatlar uchun hayot manbalari sifatida tasvirlangan, yerni oziqlantiradi va tirikchilikni ta'minlaydi. Suvning tsiklik tabiati - yomg'irdan daryolargacha va yana dengizgacha - hayot, o'lim va qayta tug'ilish ritmini aks ettiradi. Suvning kuchi va oldindan aytib bo'lmaydiganligi nemis xalq qo'shiqlarida ham e'tirof etilgan. "Die Schiffsjungfrau" va "Der Fischer" kabi qo'shiqlar kema halokati va cho'kishlar haqida hikoya qiladi, dengizning xavf-xatarini va u talab qiladigan hurmatni ta'kidlaydi. Bu qo'shiqlar ogohlantiruvchi e'taklar bo'lib xizmat qiladi, tinglovchilarga inson nazorati ostida bo'lmagan kuchlarni eslatadi.

Suv ko'pincha inson his-tuyg'ulari, xususan, ongsiz va ruhning chuqurligi bilan bog'liq bo'lgan his-tuyg'ular uchun metafora bo'lib xizmat qiladi. "Am Brunnen vor dem Tore" va "Sah ein Knab' ein Röslein stehn" kabi qo'shiqlarda quduq va buloqlar yashirin istaklar va aytilmagan tuyg'ularning ramzi sifatida ishlatiladi. Suvning aks ettiruvchi yuzasi ichki dunyoni aks ettiradi, introspektsiya va tafakkurga chorlaydi.

Suvning tozalovchi kuchi nemis xalq musiqasida muhim rol o'ynaydi. "Im schönsten Wiesengrunde" va "Die Gedanken sind frei" kabi qo'shiqlar poklanish va hissiy yangilanish ramzi bo'lgan qayg'u va og'riqni yuvayotgan daryolar tasvirlarini uyg'otadi. Suv, shuningdek, suvga cho'mish va ruhiy qayta tug'ilish haqidagi qo'shiqlarda ko'rinib turganidek, o'zgartiruvchi kuchdir.

\* "Die Lorelei": Bu hayajonli ohang suvning jozibali va xavfli jozibasini ifodalovchi jozibali qo'shig'i bilan dengizchilarni o'limga jalb qiladigan sirena haqida hikoya qiladi.

\* "Die Gedanken sind frei": Mazkur qo'shiq cheklab yoki nazorat qilib bo'lmaydigan fikr erkinligini ifodalash uchun oqayotgan oqim metaforasidan foydalanadi.

\* "Im schönsten Wiesengrunde": Bu qo'shiq odam orom topib, hayot qiyinchiliklaridan qutulish mumkin bo'lgan tasalli va tasalli manbai sifatida tiniq buloq obrazini uyg'otadi.

Nemis xalq musiqasida suv ramziyligi turli mavzular orqali oqadi, bu odamlar va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Hayot va yangilanishni nishonlashdan tortib xavfni tan olish va hissiy chuqurliklarni o'rganishgacha bo'lgan suv nemis xalq qo'shiqlarining ma'nosi va hissiy rezonansini boyitgan kuchli motiv bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Muxtasar qilib aytganda suv nafaqat tiriklik manbai, balki hayotning eng ulug',bebaho va beqiyos mo'jizasi hisoblanadi. Shu bois ham insoniyat qadim zamonlardan oq suvni muqaddaslashtira boshlagan, unga sig'ingan. Jahon xalqlarida suv bilan bog'liq turli-tuman mifologik qarashlar va inonchlar keng tarqalgan.

### ADABIYOTLAR:

1. Аширов Адҳамжон. Ўзбек маданиятида сув [Матн] / Адҳамжон Аширов. – Тошкент: Академнашр, 2020. – 240 б.
2. Жўраев М., Саттиева Д. Ўзбек фольклорига ҳаёт дарахти. – Тошкент: Фан, 2010.
3. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар // Танланган асарлар. Т. 1. – Тошкент: Фан, 1968.
4. Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1959
5. Аширов А. Фарғона водийси аҳолисининг сув билан боғлиқ қараишлари // Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2017.
6. Аширов А. Фарғона водийси аҳолисининг сув билан боғлиқ мифологик қараишлари ва урф-одатлари // О'zbekiston tarixi. – 2018. – №1. – Б. 22–3.
7. Бозорова Р. Ш. "Сув" сўзи билан боғлиқ фразеологик бирликларнинг немис, ўзбек ва рус тилларидаги таҳлили // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 277-282.
8. Бозорова Р. Ш. Сув билан боғлиқ жой номларининг лисоний қатламлари таҳлили // Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 112-118.
9. Бозорова Р. Ш. Interpretation of poetonims in the novel by Johann Wolfgang Goethe "The sufferings of young Werther" // Scientific bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 12. – С. 182-185.
10. Бозорова Р. Гидропонимларнинг немис, ўзбек ва рус тилларидаги фразеологик бирликларда акс этиши // Центр научных публикаций (vuxdu. Uz). – 2022. – т. 26. – №. 26.



## LITERARY CRITICISM

---

11. Sharopovna B. R. *Research of Water Names in Onomastics //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development.* – 2024. – С. 148-151.
12. Sharopovna B. R. *Some approaches to translation //Indonesian Journal of Innovation Studies.* – 2022. – Т. 18.
13. Babayev, O. (2024). *Periodische Phasen der Forschungen von Rumis Werken in deutscher Sprache. центр научных публикаций (bukdu.uz), 46(46).*
14. Bозорова R. Sh. *Analysis of phraseological units related to the word "water" in German, Uzbek and Russian //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS).* - 2022. - Т. 2. – no. 1. – S. 277-282.
15. Bозорова R. Sh. *Analysis of linguistic layers of water-related place names //Results of National Scientific Research International Journal.* - 2022. - Т. 1. – no. 3. - S. 112-118.
16. Bозорова R.S. *Interpretation of poeonyms in the novel by Johann Wolfgang Goethe "The sufferings of young Werther" //scientific bulletin of Namangan State University.* - 2019. - Т. 1. – no. 12. - S. 182-185.
17. Bозорова R. *Reflection of hydroponyms in phraseological units in German, Uzbek and Russian languages //tsentr nauchnykh publikatsiy (bukhdu. Uz).* - 2022. - t. 26. – no. 26
18. Bозорова R. *Гидропонимларнинг немис, ўзбек ва рус тилларидаги фразеологик бирликларда акс этиши //центр научных публикаций (bukdu. uz).* – 2022. – Т. 26. – №. 26.